KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

“AL-MISBAH FIN-NAHV” ASARIDA FE’L OMILI VA UNING GRAMMATIK AMALI

Mo‘minova Mohinur Fozil qizi
Yangi asr universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mutarriziyning “Al-Misbah fin-nahv” asarida fe’l omili va uning grammatik amali nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda fe’lning qiyosiy omillar tizimidagi tayanch o‘rni, uning rof’ va nasb hodisalarini shakllantirishdagi roli hamda lozim va mutaaddiy fe’larning sintaktik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, Mutarriziy qarashlari Abdulqohir al-Jurjoniyning “Al-Jumal” va “Mi’atu omil” asarlaridagi g‘oyalar bilan qiyoslanib, olimning arab nahviy omillik nazariyasiga qo‘shgan hissasi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: arab tili, nahv, omillik nazariyasi, Al-Mutarriziy, Al-Misbah, fe’l omili, rof’, nasb, fo‘il, maf’ul bihiy, al-Jurjoniy.

THE VERB AS A GOVERNING AGENT AND ITS GRAMMATICAL FUNCTION IN THE WORK “AL-MISBAH FIN-NAHV”

Mo‘minova Mohinur Fozil qizi
Lecturer at Yangi Asr University

Annotation. This article provides a theoretical analysis of the verbal governor (al-fi‘l) and its grammatical operations in Al-Mutarrizi’s treatise Al-Misbah fi an-Nahv. The study highlights the foundational role of the verb in the system of analogical governors, its function in assigning nominative (raf‘) and accusative (nasb) cases, and the syntactic characteristics of intransitive and transitive verbs. Furthermore, Al-Mutarrizi’s views are comparatively analyzed alongside Abdul Qahir al-Jurjani’s ideas in Al-Jumal and Mi’atu 'Amil, substantiating Al-Mutarrizi’s contribution to Arabic syntactic governor theory.

Keywords: Arabic language, syntax (Nahv), governor theory (Amal), Al-Mutarrizi, Al-Misbah, verbal governor, raf‘, nasb, fa‘il, ma‘ful bihi, al-Jurjani.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n11

Qiyosiy lafziy omillar tizimida fe’l markaziy o‘rin egallaydi. Arab nahvshunosligida fe’l omillik xususiyatining asosiy manbai sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, boshqa qiyosiy omillarning grammatik mohiyati ham u bilan bog‘ liq holda izohlanadi. Shu sababli nahv olimlari omillar haqidagi bahsni odatda fe’l bilan boshlaganlar. Mutarriziy ham “Al-Misbah” asarida fe’lni qiyosiy omillarning birinchi turi sifatida keltirib, uning grammatik ta’siri va nahviy vazifalarini yoritadi. Bu hol muallifning fe’lni omillik nazariyasining tayanch unsuri sifatida talqin qilganini ko‘rsatadi.

قَدَّمْنَا الْقِيَاسِيَّةَ لِاطِّرَادِهَا، وَلِأَنَّ الْفِعْلَ أَصْلٌ مِنْهَا، وَهُوَ الْأَصْلُ فِي الْعَمَلِ، وَجُمْلَتُهَا سَبْعَةٌ: الْفِعْلُ عَلَى الْإِطْلَاقِ، وَاسْمُ الْفَاعِلِ، وَاسْمُ الْمَفْعُولِ، وَالصِّفَةُ الْمُشَبَّهَةُ، وَالْمَصْدَرُ، وَالِاسْمُ الْمُضَافُ، وَالِاسْمُ التَّامُّ. أَمَّا الْفِعْلُ فَإِنَّهُ يَعْمَلُ الرَّفْعَ وَالنَّصْبَ فِي الْأَسْمَاءِ، أَمَّا الرَّفْعُ فَلِأَنَّ كُلَّ فِعْلٍ يَرْفَعُ اسْمًا وَاحِدًا، لِأَنَّهُ فَاعِلُهُ، نَحْوُ: فَعَلَ زَيْدٌ.[1]

Qiyosiy omillarni ularning qo‘llanishi muntazam bo‘lgani hamda fe’l ular orasida asos hisoblangani sababli avval keltirdik. Fe’l omillikning asosiy manba’i sanaladi. Qiyosiy omillar yettita bo‘lib, ular: mutlaq fe’l, ismi fo‘il , ismi maf’ul, sifati mushabbaha, masdar, muzof ism va ism tamdan iboratdir. Fe’lga kelsak, u ismlarda raf’ va nasbni hosil qiladi. Raf’ga kelsak, har bir fe’l bitta ismni raf’ qiladi. Chunki u fe’lning fo‘il i hisoblanadi. Masalan: فَعَلَ زَيْدٌ (“Zayd bajardi”).

Muallif fe’lni qiyosiy omillar qatorida oddiy bir grammatik birlik sifatida emas, balki ularning asosi sifatida talqin qiladi. uning الْفِعْلَ أَصْلٌ مِنْهَا *(fe’l ular orasida asosdir)* degan fikri fe’lning qiyosiy omillar tizimidagi markaziy o‘rnini belgilaydi. Darhaqiqat, keyinchalik zikr etilgan ismi fo‘il, ismi maf’ul, sifati mushabbaha va masdar kabi omillar ham o‘z omillik xususiyatini fe’l bilan bog‘ liqligi orqali namoyon etadi. Muallifning وَهُوَ الْأَصْلُ فِي الْعَمَلِ *(u omillikning asosi hisoblanadi)* degan hukmi alohida ahamiyatga ega. Ushbu jumla fe’lning nafaqat qiyosiy omillar orasidagi mavqeini, balki butun nahviy omillik nazariyasidagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, u grammatik ta’sirning asosiy manbai sifatida aynan fe’lni ko‘radi. Shu bois omillar haqidagi bayon ham fe’l bilan boshlanadi. Olim fe’lning grammatik ta’sirini يَعْمَلُ الرَّفْعَ وَالنَّصْبَ فِي الْأَسْمَاءِ *(ismlarda raf’ va nasbni hosil qiladi*) iborasi orqali izohlaydi. Bu yerda fe’lning ikki asosiy nahviy vazifasi ko‘rsatilgan. Birinchisi, fo‘ilni raf’ qilish bo‘lsa, ikkinchisi mutaaddiy fe’llarda maf’ulni nasb qilishdir. Natijada fe’l gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, كُلُّ فِعْلٍ يَرْفَعُ اسْمًا وَاحِدًا *(har bir fe’l bitta ismni raf’ qiladi)* jumlasi fe’l bilan fo‘il o‘rtasidagi uzviy bog‘ liqlikni ko‘rsatadi. Muallif raf’ hodisasini tasodifiy grammatik belgi sifatida emas, balki fe’lning tabiiy natijasi sifatida talqin qiladi. Shu sababli fe’lning ta’siri eng avvalo fo‘ilning vujudga kelishida namoyon bo‘ladi. Biroq uning grammatik vazifasi faqat raf’ bilan cheklanmaydi. Mutaaddiy fe’llar maf’ulni nasb qilish orqali gapning sintaktik tuzilishini ham belgilaydi. Shunday qilib, raf’ va nasb fe’l omilining eng muhim ta’sir shakllari hisoblanadi. Mazkur matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mutarriziy fe’lning omillik xususiyatini faqat nazariy qoida sifatida emas, balki nahviy tizimning asosiy tamoyili sifatida tushuntiradi. Bizningcha, muallif fe’lni qiyosiy omillarning birinchi turi sifatida zikr etishi tasodifiy emas. Chunki qolgan qiyosiy omillarning deyarli barchasi fe’l bilan bog‘ liq holda shakllangan.

Masalan, ismi fo‘il harakat bajaruvchisini, ismi maf’ul esa harakat ta’siri tushgan obyektni ifodalaydi. Sifati mushabbaha va masdar ham o‘z grammatik mohiyatiga ko‘ra fe’l bilan aloqadordir. Demak, Mutarriziy nazarida fe’l nafaqat mustaqil omil, balki boshqa omillarning nazariy manbai ham hisoblanadi. Tadqiq natijasida aniqlandiki, muallif fe’lning ta’sirini ikki asosiy yo‘nalishda talqin qiladi. Birinchi yo‘nalish fo‘ilning rof’ qilinishi bilan bog‘ liq bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish maf’ul va boshqa mansublarning nasb qilinishi bilan bog‘ liqdir. Shu jihatdan fe’l gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarni boshqaruvchi markaziy omil sifatida talqin qilinadi. Allomaning eng muhim ilmiy yutuqlaridan biri fe’lni qiyosiy omillarning oddiy bir turi sifatida emas, balki omillik nazariyasining tayanch unsuri sifatida talqin qilganidadir. Bu jihat uning qarashlarini avvalgi manbalardagi bayonlardan ajratib turadi. Abdulqohir al-Jurjoniy “Al-Jumal” asarida quyidagicha yozadi:

بَدَأْنَا بِالْأَفْعَالِ لِأَنَّهَا الْأَصْلُ فِي الْعَمَلِ، وَهِيَ تَعْمَلُ الرَّفْعَ وَالنَّصْبَ فِي الْأَسْمَاءِ.[16]

Fe’llardan boshladik, chunki ular omillikda asos hisoblanadi. Fe’llar ismlarda raf’ va nasbni hosil qiladi

Shuningdek, “Mi’atu omil” asarida:

الأَوَّلُ: الْفِعْلُ عَلَى الْإِطْلَاقِ، نَحْوُ: ضَرَبَ زَيْدٌ عَمْرًا وَذَهَبَ زَيْد. ،

Fe’lni qiyosiy omillarning birinchi turi sifatida qisqacha zikr qiladi. Mazkur manbalar qiyoslanganda fe’l omili haqidagi qarashlarning izchil rivojlangani kuzatiladi. “Mi’atu omil”da masala qoida va misol shaklida bayon qilingan bo‘lsa ham, fe’lning omillikdagi asosiy o‘rni qisqacha izohlangan. Al-Mutarriziy esa ushbu qarashlarni yanada rivojlantirib, fe’lning qiyosiy omillar tizimidagi mavqei hamda uning rof’ va nasb hosil qiluvchi grammatik ta’sirini nazariy

jihatdan asoslaydi. Ayniqsa, Jurjoniyning الْأَصْلُ فِي الْعَمَلِ *(omillikning asosi)* haqidagi fikri Mutarriziy tomonidan davom ettirilib, qiyosiy omillar nazariyasi doirasida yanada tizimli ravishda talqin qilingan. Shu jihatdan “Al-Misbah”dagi bayon avvalgi nahviy merosning oddiy takrori emas, balki uning rivojlantirilgan shakli hisoblanadi.-. Muallif fe’lning omillik xususiyatini uning rof’ va nasb hosil qiluvchi grammatik ta’siri orqali izohlaydi hamda uni boshqa qiyosiy omillarning nazariy manbai sifatida baholaydi. Shunday qilib, al-Mutarriziy fe’lni qiyosiy omillar tizimining nazariy markazi sifatida talqin qiladi. Bu esa uning nahviy qarashlarida fe’l omilining tutgan o‘rnini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

Arab nahvida fe’lning eng muhim grammatik vazifalaridan biri nasb hosil qilishdir. Agar rof’ hodisasi fo‘il bilan bog‘ liq bo‘lsa, nasb hodisasi mutaaddiy fe’llarning maf’ulga ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan fe’lning nasb hosil qiluvchi xususiyati gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Asarda ushbu masalani lozim va mutaaddiy fe’llarni farqlash hamda mutaaddiy fe’llarning darajalarini ko‘rsatish orqali yoritadi.
ثُمَّ إِنَّ الْفِعْلَ عَلَى ضَرْبَيْنِ: مُتَعَدٍّ، وَهُوَ مَا يَنْصِبُ الْمَفْعُولَ بِهِ، وَلَازِمٌ، وَهُوَ مَا يَخْتَصُّ بِالْفَاعِلِ. وَالْمُتَعَدِّي عَلَى ثَلَاثَةِ أَضْرُبٍ: مُتَعَدٍّ إِلَى مَفْعُولٍ وَاحِدٍ كَنَصَرْتُ زَيْدًا، وَمُتَعَدٍّ إِلَى مَفْعُولَيْنِ كَأَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا، وَمُتَعَدٍّ إِلَى ثَلَاثَةِ مَفَاعِيلَ كَأَعْلَمْتُ زَيْدًا عَمْرًا فَاضِلًا. وَقَدْ يُقَامُ الْمَفْعُولُ مَقَامَ الْفَاعِلِ.[17]

So‘ng fe’l ikki turga bo‘linadi: mutaaddiy va lozim. Mutaaddiy fe’l maf’ul bihiyni nasb qiladigan fe’ldir. Lozim fe’l esa faqat fo‘il bilan chegaralanadi. Mutaaddiy fe’llar uch turga bo‘linadi: bir maf’ulga ta’sir qiluvchi fe’llar. Masalan: نَصَرْتُ زَيْدًا (“Men Zaydga yordam berdim”); ikki maf’ulga ta’sir qiluvchi fe’llar. Masalan: أَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا (“Men Zaydga bir dirham berdim”); uch maf’ulga ta’sir qiluvchi fe’llar. Masalan: أَعْلَمْتُ زَيْدًا عَمْرًا فَاضِلًا (“Men Zaydga Amrning fazilatli ekanini bildirdim”). Shuningdek, maf’ul ba’zan fo‘il o‘rniga qo‘yilishi ham mumkin.

Mutarriziy fe’lning nasb hosil qiluvchi ta’sirini avvalo lozim va mutaaddiy fe’llarni o‘zaro farqlash orqali tushuntiradi. Muallifning مَا يَنْصِبُ الْمَفْعُولَ بِهِ *(maf’ul bihiyni nasb qiladigan fe’l)* degan ta’rifi mutaaddiy fe’lning asosiy grammatik vazifasini aniq ifodalaydi. Demak, fe’lning nasb hosil qiluvchi ta’siri uning mutaaddiylik xususiyati bilan bevosita bog‘ liqdir. Lozim fe’llar esa مَا يَخْتَصُّ بِالْفَاعِلِ *(faqat fo‘il bilan chegaralanadigan fe’l)* sifatida tavsiflanib, ularning ta’siri fo‘ildan nariga o‘tmaydi. Muallif mutaaddiy fe’llarni bir, ikki va uch maf’ulli turlarga ajratadi. Bu tasnif fe’lning sintaktik imkoniyatlari turlicha ekanini ko‘rsatadi. Bir maf’ulli fe’llarda grammatik ta’sir bitta obyektga qaratilsa, ikki maf’ulli fe’llarda ushbu ta’sir doirasi kengayadi. Uch maf’ulli fe’llarda esa fe’lning sintaktik imkoniyati yanada murakkablashib, bir vaqtning o‘zida bir necha grammatik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Shunday qilib, Mutarriziy nasb hodisasini oddiy grammatik belgi sifatida emas, balki fe’l ta’sirining bosqichma-bosqich kengayib boruvchi ko‘rinishi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, muallifning وَقَدْ يُقَامُ الْمَفْعُولُ مَقَامَ الْفَاعِلِ *(maf’ul fo‘il o‘rniga qo‘yilishi mumkin)* degan fikri alohida ahamiyatga ega. Ushbu holat fe’lning grammatik ta’siri faqat nasb hosil qilish bilan cheklanmasligini, balki gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarning qayta tashkil etilishiga ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Natijada maf’ul noibul fo‘il vazifasini bajarib, marfu’ holatga o‘tadi. Mazkur matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, al-Mutarriziy fe’lning nasb hosil qiluvchi ta’sirini nahviy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Bizningcha, muallifning mutaaddiy fe’llarni bir, ikki va uch maf’ulli turlarga ajratishi fe’lning grammatik imkoniyatlarini to‘laroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu tasnif orqali fe’lning sintaktik ta’siri qanchalik kengayishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Mutarriziy nazarida nasb hodisasi tasodifiy grammatik belgi emas, balki fe’lning tabiiy ta’siridir. Chunki maf’ulning mansub bo‘lishi bevosita fe’lning mavjudligi va uning ma’noviy yo‘nalishiga bog‘ liq.

Shu bois muallif mutaaddiylikni fe’lning eng muhim Bundan tashqari, muallifning maf’ulni fo‘il o‘rniga qo‘yish mumkinligi haqidagi qarashi fe’l omilining ta’siri faqat nasb bilan cheklanmasligini ham ko‘rsatadi. Chunki majhul nisbatga o‘tilganda maf’ul noibul fo‘il ga aylanib, raf’ hukmini oladi. Bu esa fe’lning gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarni boshqaruvchi markaziy omil ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Uning eng muhim yutuqlaridan biri nasb hodisasini alohida qoidalar yig‘ indisi sifatida emas, balki fe’lning umumiy omillik xususiyati bilan bog‘ liq holda izohlashidir. Shu jihatdan uning bayoni qiyosiy omillar nazariyasining mantiqiy davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. ناصر المطرزي. المصباح في النحو. – لبنان: دار الكتب العلمية، 2011م. – 159ص.
2. سيبويه. الكتاب. – القاهرة: مكتبة الخانجي، 2009م. – 2518ص.
3. عبد القاهر الجرجاني. أسرار البلاغة. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1988م. – 392ص.
4. أبو البركات الأنباري. لمع الأدلة. – دمشق: مطبعة الجامعة السورية، 1957م. – 81ص.
5. محمود الزمخشري. المفصل في علم العربية. – بيروت: مكتبة الهلال، 1993م. – 557ص.
6. أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1987م. – 602ص.
7. مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت: المكتبة العصرية، 2009م. – 810ص.
8. محي الدين عبد الحميد. التحفة السنية بشرح المقدمة الآجرومية. – القاهرة: مكتبة لسان العرب، 1945م. – 235ص.
9. بو البركات الأنباري. الإعراب في جدل الإعراب. – دمشق: مطبعة الجامعة السورية، 1957م. – 159ص.
10. أبو البركات الأنباري. لمع الأدلة. – دمشق: مطبعة الجامعة السورية، 1957م. – 201ص.
11. إبراهيم مصطفى. إحياء النحو العربي. – القاهرة: هنداوي للتعليم والثقافة، 1959م. – 116ص.
12. أبو حيان الأندلسي. ارتشاف الضرب من لسان العرب. – القاهرة: مكتبة الأَزْهَرِيَّةِ للتراث، 1997م. – 2677ص.
13. خير الدين الزركلي. الأعلام. – بيروت: دار العلم للملايين، 1979م. – ج5. – 336ص.
14. ابن إسحاق الزجاج. كتاب حروف المعاني. – بيروت: مؤسسة الرسالة، 1976م. – 200ص.
15. ابن النديم. الفهرست. – بيروت: دار المعرفة، 2002م. – 545ص.
16. الجرجاني عبد القاهر بن عبد الرحمن .الجمل .– دمشق :مكتبة مجمع اللغة العربية، 1972م.– ص13
17. المطرزي أبو الفتح ناصر بن عبد السيد. المصباح في علم النحو.– بيروت: دار الكتب العلمية. 2011م.– ص58

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.